

ONLINE SUG'URTA VA SUG'URTA TIZIMIDAGI YANGILIKLAR**Zuxriddin Xabibullo o'g'li**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Namangan viloyati
Qo'riqlash boshqarmasi xodimi Muxammadaliyev

Annotatsiya: Bugun barcha sohalar qatori sug'urta yo'nalishida ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va shu orqali mijozlarga qulayliklar yaratishga e'tibor yanada kuchaydi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 23-oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Kalit so'zlar: online sug'urta, ixtiyoriy va majburiy sug'urta, sug'urta bozorini raqamlashtirish, "O'zagrosug'urta", moliyalashtirish.

Iqtisodiyot har qanday davlatning asosiy poydevoridir. Shuning uchun ham XXI asr raqamli texnologiyalar va globallashuv asri deb bejiz aytilmagan. Iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan sug'urta ham o'z o'rnida bundan mustasno emas. Hozirgi kunda sug'urta sohasida internetdan foydalanish juda keng tarqalgan bo'lib, bu ayniqsa sug'urta mahsulotlarini onlayn sotish orqali namoyon bo'lmoqda.

Buni "O'zbekinvest" Milliy Sug'urta Kompaniyasining keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirayotgani misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Kompaniya doimiy ravishda xizmatlar sifatini yaxshilash va mavjud istiqbolli mijozlar uchun qulayliklar yaratish ustida ishlamoqda. Bu borada 2019 yilning yozidan boshlab, mamlakatning barcha aholisiga internet orqali onlayn sug'urta qilish imkoniyatini beruvchi kompaniyaning yangi loyihasi o'z ishini boshladi. Loyihaning ishga tushirilishi xizmat sifati va samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu xizmat tufayli O'zbekistonda sug'urta tizimi juda qulay va tezkor holatga keldi. Endi sug'urtani ro'yxatdan o'tkazish uchun ofisga tashrif buyurishning hojati yo'q – barcha jarayonlar onlayn rejimida amalga oshirilmoqda. Portal orqali qanday sug'urta turlarini chiqarish, shuningdek, sug'urtaning zamonaviy shakli nimada ekanligini ko'rib chiqish mumkin. Buni insurance.uz veb-saytiga tashrif buyurib, bilib olishingiz mumkin.

Sug'urta mahsulotlarini onlayn xarid qiladigan mijozlar uchun insurance.uz quyidagi afzalliklarni taklif etadi:

1. Sug'urta kompaniyasining ofisiga bormasdan ro'yxatdan o'tish uchun maksimal darajada vaqtni tejash;
2. Yetkazib berishning minimal muddati (5 ish kuni davomida bepul yetkazib beriladi);
3. Xizmatlar uchun to'lovlarning turli usullari, shu jumladan terminallar hamda Click, Payme tizimlari orqali to'lovlar;
4. Sug'urta xizmati va uni ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha telefon hamda elektron pochta orqali maslahat olish.

Portal orqali KACKO avtotransport vositalarini ixtiyoriy sug'urtalash, tibbiy sug'urta, sayohatlarni keng qamrovli sug'urtalash, ixtiyoriy va majburiy sug'urtaning boshqa turlarini onlayn tarzda amalga oshirishingiz mumkin. Bunda maxsus kalkulyator sizga xizmat narxini tezda hisoblash imkonini beradi, shundan so'ng darhol sug'urta polislarini ro'yxatdan o'tkazishingiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakat yagona axborot makoni ostonasida turgan paytda "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi iqtisodiy infratuzilmaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy omil sifatida muhim rol o'ynaydi. Onlayn sug'urtaning rivojlanishi sug'urta bozorining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-iyuldan sug'urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat beriladi. 2023-yil 1-yanvardan majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi.

2022-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvargacha hayot sug'urtasi sohasidagi sug'urta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda solig'i bo'yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi. 2022-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvargacha ish beruvchi tomonidan o'z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish va tibbiy sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari asosida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan mablag'lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmaydi.

2022-yil 1-iyungacha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug'urta polislarini ro'yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etiladi. Sug'urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug'urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. 2022-yil 1-iyuldan inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlari chiqariladi.

Xalq farovonligining muhim sharti – bu albatta, iqtisodiy taraqqiyotga erishishdir. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ya'ni, Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari asosida mamlakatda so'nggi 5 yil davomida amalga oshirilgan ishlarni tom ma'nodagi yangilanish va o'zgarishlarga asos bo'ldi, deyish mumkin.

Xususan, sug'urta sohasini oladigan bo'lsak, bugun mamlakat bozoridagi 40 dan ortiq sug'urta kompaniyalarining joriy yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha umumiy ustav kapitali 1,51 trillion so'mni, umumiy sug'urta zaxiralari esa 2,36 trillion so'mni tashkil etdi. Albatta, bu ko'rsatkichlar Prezidentimizning e'tibori, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bilan izohlanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-iyul kuni sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazib, qator vazifalarni belgilab bergan edi. Qolaversa, soha taraqqiyotini belgilab beruvchi qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 24-maydagi "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 23-oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari shular jumlasidandir.

Ushbu hujjatlar "UZINSURANCE" kompaniyasining 2021-yildagi faoliyatida muhim rol o'ynadi. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining 2020-yilning 27-oktyabrida qabul qilingan "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni asosida "O'zagrosug'urta" AJda raqobatbardoshlikni oshirish, xalqaro sug'urta bozoriga chiqish, sug'urta sohasida davlat siyosatini tubdan takomillashtirish maqsadida transformatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz farmoni ijrosi yuzasidan "O'zagrosug'urta" AJni transformatsiya qilish, korporativ boshqaruv va moliyaviy audit joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Uning doirasida shuningdek, Jamiyat tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va yangi, innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etishga ham jiddiy e'tibor qaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, kompaniya faoliyatidagi o'zgarish va yangilanishlar moliya bozorida sug'urta xizmatlari sifatini yanada yaxshilash bilan bir qatorda sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirishga, pirovardida iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qilish borasidagi ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarishda muhim islohotlardan biri bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shennayev X.M., Sug'urta ishi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 248b.
2. Shennayev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 264b.
3. Rene Doff. Risk Management for Insurers, Third edition. Risk Books, 2015
4. <https://uzbekinvest.uz/uz/news/uzbekinvest-onlajn-sugurta-so-asida-insuranceuz-ni-taklif-etadi>